XALQ DEPUTATLARI QO‘SHTEPA TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2022 - yil 12 - avgust VI-54-76-11-157-K/22 Qo‘shtepa tuman hokimligi

Qo‘shtepa tumanidagi ayrim geografik ob’ektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga kiritish to‘g‘risida

“Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasining 2022-yil 7-fevraldagi 01-14-116-son Ekspertiza xulosalariga va tuman hokimiligining ayrim geografik ob’ektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga kiritish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasining 2022-yil 7-fevraldagi 01-14-116-son Ekspertiza xulosalar muvofiq tuman hokimining ayrim geografik ob’ektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari o‘zgaradigan ko‘chalarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Statistika bo‘limi, tuman Qurilish bo‘limi (S.Azimov), tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni, shuningdek yangidan nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani

shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (Sh.Mavlonov) nomlari o‘zgargan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman Qurilish bo‘limi (S.Azimov) hududlarda yangi nomlangan va nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror “Istiqbol yo‘li” gazetasida rasman e’lon qilish tavsiya etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya (A.Abdumalikov), “Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (I.Qosimdjonov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **I.V.Novikov**

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tuman
Kengashining
2022 yil 12 avgustdagi
VI-54-76-11-157-K/22-son qaroriga
1-ilova

Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reestriga kiritilayotgan tumandagi geografik ob’ekt nomlari

TR	MFY nomi	Geografik obektning nomi	Hozirgi nomi	Taklif etilayotgan nom	Ekspert xulosasi
1	Fayz	ko‘cha	nomsiz	Yangiturmush	
2		ko‘cha	nomsiz	Zarashfon	
3	Qorakaltak	ko‘cha	nomsiz	Furqat	
4	O‘chqi	ko‘cha	nomsiz	Oltin diyor	
5	Solijonobod	ko‘cha	nomsiz	Nurli xayot	
6	Quvurboshi	ko‘cha	nomsiz	Ijodkorlar	
7	Sarmazor	ko‘cha	nomsiz	Bog‘iston	
8	Barot	ko‘cha	nomsiz	Orasta	
9		ko‘cha	nomsiz	Yashnaobod	
10	Eshonguzar	ko‘cha	nomsiz	Saodat	
11		ko‘cha	nomsiz	Etirof	
12		ko‘cha	nomsiz	Birdamlik	
13		ko‘cha	nomsiz	Shodiyona	
14		ko‘cha	nomsiz	Davr	
15	Xumdon	ko‘cha	nomsiz	Toshqo‘rg‘on	
16		ko‘cha	nomsiz	Bog‘bonlar	
17		ko‘cha	nomsiz	Baxt	
18	Yangiariq	ko‘cha	nomsiz	Yangi avlod	
19		ko‘cha	nomsiz	Obodyurt	
20		ko‘cha	nomsiz	Axmad al-Farg’oniy	
21		ko‘cha	nomsiz	Bo‘ston	
22	Shodlik	ko‘cha	nomsiz	Ziyonur	
23		ko‘cha	nomsiz	Baxor	
24		ko‘cha	nomsiz	Gavxar	
25		ko‘cha	nomsiz	Zilol	
26		ko‘cha	nomsiz	Zafarobod	

27	G‘ishtmon	ko‘cha	nomsiz	Javohir	
28		ko‘cha	nomsiz	Ma’naviyat	
29		ko‘cha	nomsiz	Manas	
30	Qayrag‘och	ko‘cha	nomsiz	Bog‘u-bo‘ston	
31		ko‘cha	nomsiz	Afzal	
32	O‘rta O‘qchi	ko‘cha	nomsiz	Omad	
33		ko‘cha	nomsiz	Shukrona	
34	Istiqbol	ko‘cha	nomsiz	Yangi xayot	
35		ko‘cha	nomsiz	Mehnatobod	
36	Balandmasjid	ko‘cha	nomsiz	Yangi asr	
37	Shakar	ko‘cha	nomsiz	Amir Temur	
38	Sohibkor	ko‘cha	nomsiz	Islomobod	
39		ko‘cha	nomsiz	Marg‘ilon	
40	Kattaboltako‘l	ko‘cha	nomsiz	Yoshlik	
41	Kattabeshkapa	ko‘cha	nomsiz	Yangiobod	
42	Istiqlol	ko‘cha	nomsiz	Munavvar	
43		ko‘cha	nomsiz	Nuroniylar	
44		ko‘cha	nomsiz	Do‘stlik	